



# SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2019 yil yanvar-sentyabr oylarida  
asosiy kapitalga investitsiyalar



Joriy davrda 5 519,1 mlrd so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 67,6 % jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korhona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 32,4 % moliyalashtirildi.






## Moliyalashtirish manbalari bo`yicha asosiy kapitalga investitsiyalar


Asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi, yani jami investitsiyalarning 16,7 % korhona va tashkilotlarning o`z mablag`lari hisobidan moliyalashtirilgan. Shuningdek, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag`lari hisobidan 20,5 %, to`g`ridan-to`g`ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 28,0 %, aholi mablag`lari 15,7 %, O`zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar 7,5 %, Respublika byudjeti 9,5 % va suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi 2,1 % asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirildi.

### Moliyalashtirish manbalari bo`yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (jami hajmdagi ulushi, %da)





## Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (davomi)



	mlrd.so'm	o'sish sur'ati, %da	jamiga nisbatan, %da
<b>Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan</b>	<b>5519,1</b>	<b>99,7</b>	<b>100,0</b>
Republika byudjeti	524,7	131,6	9,5
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	113,9	129,3	2,1
O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar	412,8	62,3	7,5
Korhona mablag'lari	921,9	87,6	16,7
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	1134,2	64,9	20,5
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	1546,3	483,7	28,0
Aholi mablag'i	865,3	96,8	15,7



## Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar




	mlrd.so'm	o'sish sur'ati, %da	jamiga nisbatan, %da
<b>Surxondaryo</b>	<b>5519,1</b>	<b>99,7</b>	<b>100,0</b>
Oltinsoy	155,4	105,1	2,8
Angor	235,3	118,1	4,3
Boysun	560,4	140,4	10,1
Denov	428,1	131,1	7,8
Jarqurg'on	579,4	147,0	10,5
Qiziriq	446,4	128,3	8,1
Qumqurg'on	226,5	108,2	4,1
Muzrabod	221,5	129,9	4,0
Sariosiyo	636,8	116,0	11,5
Termiz	342,5	101,2	6,2
Uzun	171,0	116,0	3,1
Sherobod	332,0	25,4	6,0
Sho'rchi	176,2	149,4	3,2
Termis sh.	1007,6	114,3	18,3



## Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar(davomi)

### Asosiy kapitalga investitsiyalarning o`shish suratlari




Asosiy kapitalga investitsiyalarning hududlar kesimida yuqori o`shish sur`ati Boysun tumanida kuzatilgan bo`lib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan o`shish sur`ati 140,4 %, Sariosiyo 116,0 % va Sho`rchi tumanlarida 149,4 % ni tashkil etdi.

Sherobod tumanida asosiy kapitalga investitsiyalar o`tgan yilga nisbatan keskin tushishi - 25,4 %. Bu albatta o`tgan yillarda ushbu hududda yirik investitsiya loyihasi – sement zavodi kompleksi qurilishi bo`yicha investitsiyalarning katta bo`lgani bilan izohlanadi.



## Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar (davomi)

### Viloyatdagi ulushi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zlashtirilgan hajmi bo'yicha hududlar kesimida Termiz shahri hamon yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 18,3 % o'zlashtirildi.


Shuningdek Termiz shahridan keyingi o'rinda Sariosiyo tumani 11,5 % ni tashkil etmoqda.

Jarqurg'on va Boysun tumanlarida ushbu ko'rsatkich mos ravishda 10,5 va 10,1 %ni tashkil etdi.

Qiziriq hamda Denov tumanlarida investitsiyalarning viloyatdagi ulushi 8,1 va 7,8 %ni tashkil etgan bo'lsa, Oltinsoy tumanida bu ko'rsatkich bo'yicha eng kama bo'ldi – 2,8 %.




## Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha 2606,9 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar 2150,9 mlrd.so'm va boshqa xarajatlarga 761,3 mlrd. so'm o'zlashtirildi.



## Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi




Joriy davrda ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aksariyat qismi yangi qurilishga yo'naltirilgan. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 3153,1 mlrd.so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 57,1 %ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta quollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 2060,5 mlrd.so'mni tashkil etdi va viloyatda jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 37,3 %ini tashkil etdi. Qolgan 5,6 %, yani 305,5 mlrd.so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.





## Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qishloq xo'jaligi yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 1383,7 mlrd.so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 25,1 % o'zlashtirilgan.

Qayta ishlash sanoati tarkibida eng ko'p investitsiya o'zlashtirilgan 2 faoliyat turi quyidagilar:

- Oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 244,1 mlrd.so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 4,4 %);

- to'qimachilik mahsulotlari va kiyim kechak ishlab chiqarish 131,7 mlrd.so'm (2,4 %);

Tashish va saqlashda 289,5 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 5,2 % o'zlashtirildi



## Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar




mlrd.so`m

	Jami investitsiya va kreditlar (mlrd.so`m)	shu jumladan:		To`g`ridan – to`g`ri investitsiyalar	Boshqa investitsiya va kafolatmagan kreditlar	shu jumladan:	
		Investitsiya	kredit			investitsiya	Kafolatlanmagan kredit
<b>Surxondaryo</b>	<b>1959,1</b>	<b>1480,0</b>	<b>479,1</b>	<b>1437,1</b>	<b>109,2</b>	<b>42,9</b>	<b>66,3</b>
Termiz sh.	257,3	147,5	109,8	146,9	12,6	0,6	12,0
tumanlar:							
Oltinsoy	49,3	49,3	-	49,2	0,1	0,1	-
Angor	41,6	41,6	-	41,5	0,1	0,1	-
Boysun	351,5	330,7	20,8	301,2	29,5	29,5	-
Denov	69,6	69,5	0,1	69,0	0,5	0,5	-
Jarqurg`on	299,1	299,1	-	298,9	0,2	0,2	-
Qiziriq	64,1	64,1	-	63,9	0,2	0,2	-
Qumqurg`on	32,7	19,4	13,3	19,2	0,2	0,2	-
Muzrabod	99,3	99,3	-	99,2	0,1	0,1	-
Sariosiyo	410,8	130,5	280,3	130,3	0,2	0,2	-
Termiz	61,0	60,5	0,5	60,4	0,1	0,1	-
Uzun	67,3	67,3	-	56,7	10,6	10,6	-
Sherobod	111,6	57,3	54,3	57,1	54,5	0,2	54,3
Sho`rchi	43,9	43,9	-	43,6	0,3	0,3	-



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

Viloyatdagi ulushi, %da:




Joriy davrda ham asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar va kreditlarning katta qismi qayta ishlash sanoati o'zlashtirilib, u 672,5 mlrd. so'mni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida 34,3 %ni tashkil etdi.

Hajm jihatidan keyingi o'rinni tog'-kon sanoati egallagan. Ushbu faoliyat turi bo'yicha 532,6 mlrd.so'm yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 27,2 % o'zlashtirildi.

Qishloq xo'jaligi faoliyati bo'yicha 487,5 mlrd. so'm, tashish va saqlash faoliyati bo'yicha 24,9 mlrd. so'm xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilgan.



## Obyektlarni ishga tushirish



Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumiy maydoni 819,6 ming kv.m, bo'lgan 5852 ta turar joy obyekti yangi qurilib ishga tushirilgan bo'lib, ulardan umumiy maydoni 631,9 ming kv.m. bo'lgan 4470 tasi qishloq joylarda joylashgan.


Ishga tushirilgan turar joylarning hududlar kesimida ko'radigan bo'lsak, eng ko'pi Sherobod tumanida ishga tushirilgan 97,9 ming kv.m. va u viloyat bo'yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 11,9 %ini tashkil etdi. Keyingi o'rinlarda Denov tumani va Termiz shahri egallagan bo'lib, viloyat bo'yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 10,1 va 10,4 % ini tashkil etishgan.

Eng kam turar joy Oltinsoy tumanida ishga tushirilgan bo'lib, uning ulushi 1,7 %ni tashkil etdi.



## Obyektlarni ishga tushirish (davomi)

### Ishga tushirilgan turar joylar



Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi

Aloqa telefoni:

(76) 223-07-15